


Qorovulbozor tuman Axborot-kutubxona markazi Axborot-bibliografiya xizmati

- Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek – o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi
(Oybek tavalludining 121 yiliga bag'ishlab)

Adabiyotlar sharhi



Qorovulbozor – 2026

ARXIV.UZ

Oybek

1905 - 1968)



shmuhammad o'g'li Oybek
5- yilning 10-yanvarida
ning Gavkush mahallasida,
mand to'quvchi oilasida
tug'ildi.



Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yili Toshkent shahrida bo'zchi oilasida tug'ilgan. Oldin o'rta maktabda 1922-1925 yillarda esa Toshkent ta'lim va tarbiya texnikumida tahsil olgan. So'ngra O'rta Osiyo Davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida o'qigan. 1930-yili o'qishni bitirib, oliy maktablarda siyosiy iqtisoddan dars bergan.



ARXIV.UZ

Uning asarlari

“Oltin vodiyan shabadalar” (1949)




“Navoiy” (1944)

“Ulug' yo'l” (1963)


“Bola Alisher” (1967)

aymas”

” (1955)





Oybek
QUTLUG' QON




Oybek. Qutlug' qon. / Oybek: - Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2018. – 488 b

“Qutlug' qon” romani til va badiiy mahorat jihatdan diqqatga sazovordir. Asarda adib obraz yaratishda psixologik tahlil san'atidan, xalq tili boyliklaridan ustalik bilan foydalangan. Obraz xarakterini, personaj tilini tabiiy va jonli qilib tasvirlagan.

Asar haqida fikr yuritgan olim Homil Yoqubov Shunday degan edi: “Badiiy asarda personaj nutqi singari miallif Nutqi ham aniq va obrazli bo'lishi, milliy tarovat bilan Bezangan, davr ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi shart. Bu jihatdan romanning tili ibratlidir.”




Oybek. Bolalik xotiralarim: Qissa. / Oybek. (Nashrga tayyorlovchi: N. Karimov) – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 336 b.





Atoqli o'zbek yozuvchisi Muso Toshmuhammad o'g'li Oy turfa voqealarga boy, mashaqqatli va ayni paytda ajoyib xayot yo'lini bosib o'tgan. Qo'lingizdagi "Bolalik xotiralarim" kitobida u ana shu yolning 1917 – 1918 larga qadar bo'lgan qismi bilan siz hurmatli kitobxonni tanishtiradi. Oybek singari ulug' allomalarning bolalik va yoshlik kezlari ularning ko'cha changitib yurgan oddiy boladan xalqning mutafakkir siymolaridan biriga aylanishi, ayniqsa, yosh avlodlar uchun hamisha maroqli va ibratlidir.

**Ойбек, Мусо Тошмуҳаммад ўғли. Нур қидириб: қисса.
/ Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек. – Т: Янги аср авлоди,
2021. – 336 б.**




“Нур қидириб” асарининг бош мавзуси Покистон халқининг икки ёқлама, яъни мустамлакачилар ва маҳаллий мансабдорлар томонидан жабр зулм остида қолганига қарши эрксевар халқ фарзандлари кураш олиб боришларидан иборат. Қиссанинг бош қаҳрамонлари – Аҳмад Ҳусайн ва Искандаро халқ озодлиги ва фаровонлиги йўлида курашиш баробарида ўз муҳаббатларига эришиш учун ҳам астойдил интилади.







Oybek. Navoiy: roman / Oybek. – T.: “Navro’z”, 2019. – 480 b.



Navoiy she'riyati va Navoiy o'z
hamisha kuchli bir quyosh ka
ko'nglimni tortar edi. O'z asarlari
shoir Navoiy obrazi yaratishga zo
orzu, istagim bor edi. Lekin tarixg
ko'z tashlasam, Navoiy ulug', buy
bir siymo hoida qarshimda turar
Yoshligimdan beri Navoiyning o'ln
abadiy she'rlarini sevib o'qir edim
jozibali g'azallari borgan sari ko'n
singib bordi, shakl va mazmunlari
yuragimni mast va maftun etdi.

Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами.
/ Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек. 19 жилдлик. 1-жилд: Шеърлар
(1922-1935). Т.: «Фан», 1975.



Мазкур нашрнинг 1 ва 2-томлари Ойбекнинг лирик поэзиясига бағишланди. Ойбек шеърларини икки томга ажратишда шоир ижодининг шаклланиш ва тараққиёт босқичлари эътиборга олинди. Ўз вақтида Ойбекнинг шеърий тўпламларига киритилган таржималар мазкур нашрнинг 18 ва 19-томларига «кўчирилажаги» сабабли бу томлардан ўрин олмади.


Ойбек асарлари тўпламининг учинчи ва тўртинчи томида шоирнинг дostonлари берилди. Бу дostonлар матни (тексти) шоир шахсий архивида сақланаётган автограф (араб алифбосида ёзилган) қўлёзмалар ва босилиб чиққан нашрлар асосида тайёрланди. Ойбек «Мукаммал асарлар тўплами»нинг VI тоmidан адибнинг баркамол бадий асарларидан бири — «Навоий» романи жой олди. Ойбекининг машҳур романи «Қутлуғ қон»нинг бевосита давоми бўлган «Улуғ йўл» асари алоҳида китоб шаклида икки марта (1967 ва 1973 йилларда) нашр этилган. Ойбек мукаммал асарлар тўпламининг ўн тўртинчи томига ёзувчининг совет адабиётини ўрганишга бағишланган адабий-танқидий мақолалари, тадқиқотлари киритилди.

Ойбек. Бола Алишер: қисса / Ойбек. (Нашрга тайёрловчи ва сўнгги сўз муаллифи Н. Каримов). – Т.: Чўлпон, 1995. – 80 б.

ОЙБЕК

БОЛА
АЛИШЕР

Қисса



“Бола Алишер” биринчи марта тўла ҳолда Ойбек Вафотидан кейин 1974 йилда “Гулистон” журналининг “Алишернинг ёшлиги” номи билан чоп этилди. Қиссада тўрт ёшли Алишернинг болалик кезлари тасвирлангани ва унинг адиб ҳаётлик пайтида этак қилинган парчаси “Бола Алишер” деб аталганини эътиборга олувчи унун шу номни тиклашни лозим топдик. Бу унинг ўлмас асарларидан, уларда тасвирланган Навоийнинг сингари буюк сиймолардан, уларда куйланган Юксак инсоний туйғулардан таралажак нурдир. Бу Ойбек нуридир.

ОЙБЕК

БОЛА
АЛИШЕР



ҚИССА


XX asr o'zbek hikoyasi xazinasidan, I kitob [matn]: nashr uchun mas'ul muharrir Xo'jaahmedov. – Toshkent: “READ BOOK” nashriyoti, 2021. – 38 – 41 b.



Ushbu kitobda Oybekning hayoti va ijodi, yozgan asarlari, she'rlari va “Fanorchilik ota” hikoyasi o'rin olgan.




**Oybek. [nasr] / to'plovchi Humoyun Akbar. – Toshkent.
“O'zbekiston nashriyoti”, 2022. – 544 b.**



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh. Mirziyoev 2019 – yil 15 – oktabr
kuni Ozarbayjon poytaxti Boku
shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar
hamkorlik kengashining yettinchi
sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining
eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot
durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar
turkumini har birmamlakatning ona tilida nashr etish
g'oyasini ilgari surgan edi. Ushbu ezgu tashabbus
asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu
muhtasham adabiy majmua yaratildi. Turkiy
adabiyot durdonalari ostida chiqarilgan ushbu 15
jildda Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning hayoti
haqida “Navoiy” romani va she'rlari o'rin olgan.**



*Hurmatli kitobxonlar! Qorovulbozor tuman Axborot-kutubxona markazi **Muso Toshmuhammad og'li Oybek** asarlarini o'qishni tavsiya etadi. Quyida sizlarga tavsiya etilgan adabiyotlar kutubxonamiz jayonlaridan o'rin olgan. Marhamat, tashrif buyuring va ushbu adabiyotlardan bahramand bo'ling!*

 <https://www.facebook.com/QorovulbozorTAKM>

 <https://www.instagram.com/akmqorovulbozor>

E'tiboringiz uchun raxmat!

